

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA O'ZBEKISTONDAGI VA DUNYODAGI BIR QANCHA YONDASHUVLAR

To'liboyev Qudrat Olimjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning, jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lmish kambag'allikni qisqartirishning amaliy va nazariy yo'llari va ularning natijalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, institutsional cheklovlar, Healthabitant, qashshoqlik, iqtisodiy o'sish.

Ma'lumki, kambag'allikni qisqartirish, bu hal qilinishi kerak bo'lgan muhim masalalardan biri. Bu muammo yomon iqtisodiy ahvol natijasida, insonning sog'lig'iga, xususan, yurak xastalıkları, diabet, saraton, chaqaloqlarning o'limiga, ruhiy kasalliklarni, shuningdek aholi orasida jinoyatchilikning ko'payishiga olib keladi. Shuning uchun bu muammoni yechish dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi 2020-yilda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

“Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda”,-deb ta'kidlab o'tgan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi nisbatan yangiligini inobatga olib, uni qisqartirish uchun amalga oshiriladigan instrument va usullarni real hayotdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish, belgilangan maqsadga erishishni osonlashtiradi. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning rivojlanayotgan mamlakatlarda amaliy jihatdan qo'llanilishi AQSH olimlari A.Banerji, E.Dyufalo va M.Kremer (2019-yilda Nobel mukofoti laureatlari) tomonidan o'tkazilgan eksperimentlardan ham o'z aksini topgan.

Olimlar rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi asosiy yo'nalishlarda qator eksperimentlar olib brogan:

-kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar joylardagi shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda aniq tajribalar asosida ishlab chiqilishi;

-arzon va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, bepul emlash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

-aholining ta'lim olish davomiyligi va ta'lim sifatini oshirish;

-ijtimoiy himoya tizimi va muhtojlarni moddiy qo'llab quvvatlash;

-mikrokreditlash va tadbirkorlikka ruhlantirish;

-rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha institutsional cheklovlarning mavjudligi va boshqalar.[1]

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholining kam ta'minlangan qismini ish bilan ta'minlash va ularni tadbirkorlikka jalb qilish borasida juda katta ishlar olib borilmoqda.

Xususan, “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.[2]

Qarorga muvofiq, 2020-yil 15-noyabrdan yoshlarga va xotin qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tartiblari joriy etildi.

Dunyo miqyosida ham rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish borasida bir qancha yo'llar mavjud, bularga chorvachilikni rivojlantirish, turizmni isloh qilish, aholini sog'lomlashtirish. Masalan, Avstraliyada Pol Torzillo “Healthabitat” asoschi direktori. “Healthabitant” asoschisi bo'ladigan Torzillo, Pholeros va Rainov-qurilgan muhitdagi kamchiliklar va jamiyat a'zolarining yomon sog'lig'I o'rtasidagi aniq bog'liqlikni aniqladilar. Hisobotlar to'qqizta Sog'lom turmush amaliyoti ko'rsatilgan; odamlarni yuvish; kiyim-kechak va choyshablarni yuvish; oqava suvlarni xavfsiz olib tashlash; oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va pishirish qobiliyati orqali ovqatlanishni yaxshilash; ortiqcha olomonning salbiy ta'sirini kamaytirish; hayvonlar, hashoratlar va zararkunandalarning salbiy ta'sirini kamaytirish; changning ta'sirini kamaytirish; yashash muhitida haroratni nazorat qilish; va jismoniy shikastlanishga olib keladigan xavflarni kamaytirish . ushbu amaliyotlar hali ham “Healthabitant” nima qilayotganining asosini tashkil etadi.[3] Aholini sog'lomlashtirish uchun Avstraliyadagi “Salomatlik uchun uy-joy” loyihasi kam ta'minlangan odamlar bilan ishlaydi, ular yashaydigan joylarni tuzatadi, ularning salomatligini mustahkamlaydi. Ushbu loyihada 50000 mahalliy avstraliyaliklar yashagan unchalik mashhur bo'lmagan uylarda bor -yog'i 35 foiz ishchi dushga ega edi va xuddi shu uylarning atiga 10 foizi elektr energiasidan xavfsiz edi, hamda faqat

58 foizida hojatxona bore di. “Sog’lik uchun uy-joy loyihasi”-bu muvaffaqiyatsizlikni o’lchash emas, balki uylarni yaxshilash. Bu loyihadagi uylarni ta’mirlash ishlari 6-12 oy davom etdi va har bir uy uchun o’rtacha 7500 dollar atrofida pul sarflandi, natijada dushlarning 86 foizi, uylarning 90 foizida hojatxonalar ishlydigan qilindi va uylarning 77 foizida elektr xavfsizligi ta’minlandi. Bu loyiha hozirda ham faoliyatini davom ettirmoqda.

“Uy-joyning yomonligi tubjoylik muammosi emas; bu qashshoqlik muammosi”-Doktor Pol Torzillo. Albatta, P.Torzilloning fikri to’g’ri negaki, agar aholi qashshoq bo’lsa, ular daromadining asosiy qismini oziq-ovqatga sariflaydi, ular yashash sharoitlarini yaxshilash uchun qo’shimcha imkoniyati bo’lmaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki kambag’allikni qisqartirish yoki yo’q qilish uchun, avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish kerak. Kambag’allikni qisqartirish muammosi teng iqtisodiy o’sishga.[4] Agar biz iqtisodiy o’sishga erishsak, bizda ko’plab ish o’rinlari yaratiladi, daromadlar oshadi, ko’p insonlar moliyaviy jihatdan o’ziga to’q bo’ladi va boshqa qiynalgan insonlarga yordam berish imkoniyati oshadi, ya’ni jamiyatda resurslar ko’p bo’lsa, jamiyatdagi kam taminlangan insonlarga yordam berish imkoniyatlari ham ko’p bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.naveconomy.uz/index.php?newsid=122&seourl=nobel-mukofoti-laureatlari-tadqiqot-natijalarini-ozbekistonda-qollash-toshkent-viloyatining-boka-va-chinoz-tumanlarida-eksperiment-otkazilmoqda&seocat=asosiy/yangiliklar>
2. <https://uzreport.news/economy/yoshlar-va-xotin-qizlarga-mikrokreditlar-taminotsiz-ajratiladi>
3. <https://www.foreground.com.au/planning-policy/healthabitat/>
4. <https://youtu.be/2usaKoZ3avI>